

Vahki, ko'nglum nolasi xar dam buzulg'on jon aro.
Go'yiyo bir cho'g'z erur, faryod etar vayron aro.
Huqqai la'ling arosinda erurmu dur tishing,
Ul erur jolakim bo'lg'ay guli xandon aro.
Har kishi ko'rsa parilar ichra sen ko'z mardumin,
Bir parini jilva qilg'on sog'inur inson aro.
Oncha qon to'kti ko'zum hajringda, ey qon to'kkuchi,
Emdi ko'z ochsam ko'rarmen, olmedur qon aro.
Sel kelsa jola birla o'xshaturmen angakim,
Ko'zlarimning oqi oqqan diyda giryon aro.
Istagach majruh ko'nglumdin o'qini rashkdin
Topmasun deb yoshurubmen siynai biryon aro.
Ikki qoshingning xayoli muttasil ko'nglumdadur.
Bir dilovardekki, solmish ikki yo qurbon aro.
Hajr girdobida g'arq o'ldum, kamandi vasl ila.
Chek menikim, qolmayin bu bahri bepoyon aro.
Keldi ishqimg'a iloj etmakka bir kun bir rafiq,
Ey Husayniy, kuydi ushbu shu'lai so'zon aro.
* * *

O'tg'a yondur sarvni, ul qaddi ra'no bo'lmasa,
Yelga bergil gulni, ul ruxsori zebo bo'lmasa.
Sarv birla gul tamoshosig'a maylim yo'qturur,
Bog' aro ul sarvi gulruhdin tamosho bo'lmasa.
Nega saflar chekti mujgondin, agar jon mulkiga
Ko'zlarining mayli har dam qatlu yag'mo bo'lmasa.
Bo'lmag'ay erdi junun dashtida sargardonlig'im.
Zulfi pechu tobidin boshimda savdo bo'lmasa.
Gavhari maqsud topmoq mumkin ermas, ey rafiq,
Ko'z yoshing to vasl umidi birla daryo bo'lmasa.
Soqiyo, may tutki, hajr anduxidin bo'lmon xalos,
Xar dam ilgimda labolab jomi sahbo bo'lmasa.
Ey Husayniy, boda ichsam yor alidin teng durur
Bo'lsa obi Xizru umri jovidon yo bo'lmasa.
* * *

Ne ajoyib xo'y erur, ey sho'xi siyminbar sanga -
Kim, necha mehringga jon bersam, emas bovar sanga.
Yo sanga yo'q rahm, yo payg'omim ayturda sabo
Qilmadi zohir mening holimni, ey dilbar sanga.
Chunki devonangmen, olg'um yo'q etokingdin ilik,
Gar jafu yuz muncha bo'lsa, ey paripaykar, sanga.
Xoh javru zulm kil, xoh vafokim, har nafas
Volavu devonaroqdur joni g'amparvar sanga.
Haddin o'tkarma Husayniyg'a jafovu rahm qil,
Kim ulus shohidurur, lekin erur chokar sanga.
* * *

Furqatingdin yo'q edi jismimda jon, jonimda tob,
Ko'zda xunob erdiyu g'amgin ko'ngulda pechu tob...
Ne dame dardu g'amingdin bor edi oromu sabr,
Ne zamone dog'i hajringdin bor erdi xo'rdu xob.
Nogahon yetti savodi nomang ul jon mujdasi,
Ul sifatkim, safhai kofuriy uzra mushki nob.
O'qug'ach mazmunini jonsiz tanimg'a berdi ruh,
O'ylakim, Iso damidin oyati ummul-kitob.
Budur ummidi Husayniyningki, yetgay vasliga,
Haq nasib etgay ani, vallohu a'lam, bissavob.
* * *

Telbarab itgan ko'ngulni istadim har yon borib,
Ko'hu daryovu biyobonlarni bir-bir axtorib.
Toptim ersa o'lturubtur yuz g'amu anduh ila,
Yor zulfidin batarrak ro'zg'orin to'ngtorib.
Vahki, so'rg'ach holini tinmay to'kub dedi sirishk,
Yetti gardundin fig'onu o'tlug' ohin o'tkorib.
Vomiqu Farhodu Majnun mehnatimg'a to'zmayin,
Kuydilar ohim o'tidin har biri bir yon borib.
Men dag'i to'zmay aning istab vatan deb kuymakin,
Yuz tuman taklif ila kelturdim oni yolborib.
Kelturub chok aylabon ko'ksumni soldim o'rnig'a,
Furqatu kuymak o'tidin borisidin kutqorib.

Ey Husayniy, ul kelib tutg'ach visoli jur'asin,
Tindurub ko'nglumni men ham ichtim oni sipqorib.

* * *

Bir musofir oy xayoli kildi ko'nglumni xarob,
Qolmadi jonimg'a onsiz bir zamon toqat, ne tob.
Bir arojif so'z eshitgach ul musofirdin bu kun,
Bordi ko'nglum o'truvu jonimg'a tushti iztirob.
Vaslida ko'z goh yig'lar, goh bokar ruxsorig'a,
Goh yog'ib, goh turg'ondek bahor o'lg'ach sahob.
Vasli ikbolida ko'p ozurdamen ag'yordin,
Vah, ne tole'durki, tortarmen behisht ichra azob.
Pardadek ul yuzga yuz surtarga xud yo'qtur hadim,
Bas yuzum surtarga bo'lsa muyassar ul niqob.
Soqiyo, bir la'l'gun lab shavqidin oshuftamen,
Tut labolab jomi yoqutig'a solib la'li nob.
Ey Husayniy, yor har dam g'oyib o'lg'ach kech kelur,
Sahv emish ul nuktakim, el umr ishin derlar shitob.

* * *

Vahki, hijron barqidin tushti shabistonimg'a o't,
Uchquni birla tutashti bayt ul-ahzonimg'a o't.
G'o'zgorimnimu ishq etti qaro yo bo'ldi dud,
Hajr chun g'am do'zaxidin soldi vayronimg'a o't.
Ishq o'tining shu'lasidin kuydi ko'nglum yo magar
Tushti so'zon ohidin majnuni uryonimg'a o't.
Olam ahli jonini kuydurdi yolg'on ahd ila,
Muncha kim berdi ekin ul ahdi yolg'onimg'a o't.
Boda tobidin magar la'ling bo'lubtur otashin,
Yo magar may lam'asi soldi mening jonimg'a o't.
Dedim: "O'qing tegsa dardim tog'ig'a o't chokilur",
Dedi: "Suv o'rnig'a bermish charx paykonimg'a o't".
Gar Husayniy ohidin o't tushsa har yon, ayb emas,
Ishq mundoq hamrah etti ohu afg'onimg'a o't.

* * *

To'kub qonim, tarahhum qilmading hech,
Ko'rub holim, tabassum qilmading hech.
Tabassum qilmayin jonimni olding,
Olib jonim, tarahhum qilmading hech.
Jahon ahli kuyub ohimdin, ey yor,
Bu ohimdin tavahhum qilmading hech.
Firoqida, ko'ngul, ko'p chekting afg'on,
Visolida tarannum qilmading hech.
Husayniy, hajrida afg'ondin o'zga
Ko'rub mehnat, tana'um qilmading hech.

* * *

Toza bo'ldi bog'u ko'nglumda firoq ozoridur,
Jilva qildi gul, netay, bag'rimda hijron xoridur.
Sarvu guldin har dam afzun bo'lsa dardim, ne ajab
Dardlig' ko'nglum chu ul hamdard yorim soridur.
Vah, netay gulnor yanglig' lolalar nazzorasin,
Menki, bir gulruh uchun bag'rimda hijron xoridur.
Nosiho, gul gashtidin ko'nglum ilojin qilmakim,
Xasta ko'nglumga tikilgan xor hijron koridur.
Charx degandur ayiray gulruhingdin gul chog'i,
Ey Husayniy, bu firoq u va'daning buljoridur.

* * *

Shukrillahkim, jamolingdin ko'zum ravshandurur,
Xasta ko'nglumga visoling gulbuni maskandurur.
O'tlug' ohimdinki, hajring ichra chektim shu'lalar,
Sham'i iqbolim bu kun ul shu'ladin ravshandurur.
Durfishon ko'zum jamoling javharining aksidin
Gar burun darji guxar erdi, bu kun maxzandurur.
Ne uchun guldek ochilmay bazmi ishrat ichrakim,
Majlisim sham'i bu kun ul sarvi siymintandurur.
Aysh ila ishrat gulin ochting yana ishq ilgidin,
Ey Husayniy, sanga yuz tahsinu ming ahsandurur.

* * *

Furqatindin xasta ko'nglum qatra-qarta qon erur,
Olloh-olloh, bu ne hajri behadu poyon erur.

Har sari yuz zahm erur jismimda, vah, nosih tili
Hajr o'qidin har jarohat ichra bir paykon erur.
Ko'z qilur bu vajhdin tunlar dur ashkin nisor -
Kim, xayoling jon uyida har kecha mehmon erur.
Hanjari javringdurur o'tlug' ko'ngul osoyishi,
Suv nechukkim, tashna lablar dardig'a darmon erur.
Ey Husayniy, hajr aro bexudlug'um ayb etmagay,
Har kishikim, bir pari ishqida sargardon erur.
* * *

G'unchayi xandon borib, ko'nglumda qoldi xor-xor,
Tinmag'ur jonimg'a onsiz dunyada bori ne bor.
Sarvqadlar, lolaruhlardin ochilmas bu ko'ngul,
Vah, netaykim, dahr bog'i ichra yo'q ul guluzor.
Vasli jomidin ochilur erdi ko'nglum bog'-bog',
Voy, yuz ming voykim, ul may borib, qolmish xumor.
Qaydakim ko'rsang ani, kulmak bila xursand eding,
Aksin ayla, ey ko'ngul, har yerda yig'la zor-zor.
Vasl aro har dam sanga jonim fido aylay dedim,
Nevchun, ey oromijonim, aylading mendin kanor.
Bor dema, jon, sen g'animat tut Muzaffar vaslini,
Kim, o'tubtur dunyada mundoq balolar beshumor.
Ey Husayniy, yorsiz sen naylagung olam aro,
Ko'p adam sarmanzili azmin qilib keynicha bor.
* * *

Ishqni man' etsalar, shavqim o'ti aylar sitez,
Shu'la yanglig'kim, nafas ta'siri aylar oni tez.
Ishq doim za'flik jismimni istar o'rtagay,
Olloh-olloh, necha qilg'ay barq xas birla sitez.
Juzv-juzvim hajr aro bir-birdin ayrilmoq tilar,
Kosh qilsang hajr tig'idin tanimni rez-rez.
Tiyradur ul turra go'yokim falak parvezani,
Xatting uzra bo'ldi hijronim tunidin mushkbez.
Qomating sarvi bu olamda qiyomat basdurur,
Jilva birla pas yana har lahza solma rustaxez.
Yordin ayru tiriklik istamasmen, soqiyo,
Hajr zahridin mening jonimg'a bo'lg'il jur'arez.
Ey Husayniy, ravza ishq ahlig'a dilbar ko'yidur,
Topsalar zuhd ahli jannat, sen aning ko'yida kez.
* * *

Ko'z qarosin hal kilib yozdim sanga ajzu niyoz,
Ko'z yoshimni ham sepib ul nomag'a, ey sarvinoz.
Ishq yetgach aqlu hushu sabr har yon butrashur,
O't qayon yuzlansa vojibdur ul elga ihtiroz.
Oshkoro jon agar la'ling so'zin aytur, valek
Yoshurun g'unchang bila ko'nglumni bordur o'zga roz.
Ul ne qomatdurki, barcha rostlar aylab duo,
Derki, bu gulshan aro ul sarv bo'lsun sarfaro.
Shavqu sabrim naqdini aylay ani ko'rgach fido,
Demasa ayb aylab ul mahvash bularni ko'pu oz.
Chun haqiqa0t nuri ul oraz tajallisindatur,
Ne haqiqat ulki, oning ishqini o'ynar majoz.
Ey Husayniy, yor ko'yi Ka'basi Navro'z erur,
Ne ajab gar benavolar aylar ohangi Xijoz.
* * *

Ul quyosh ko'yida men devonani band aylangiz,
Bori bu tazvir ila ko'nglumni xursand aylangiz.
Ko'yida men telbani yuz javr birla o'lturub,
Ul suubatlarni yuz devonag'a pand aylangiz.
Istay-istay topsangiz ko'nglumni kim buzmish meni,
Vasl tig'i birla siz parkand-parkand aylangiz.
Xasta ko'nglum za'fi haddin o'tsa quvvat kasbig'a,
Do'stlar, ul yuzu lab yodini gulqand aylangiz.
Ko'nglokin chok etsa ul mast, eyki aylarsiz rufu,
Rishtai jonimni har torig'a payvand aylangiz.
Ko'ngluma ilmu adab ta'limi ko'p bermak ila
Vomiqu Farhodu Majnundek xiradmand aylangiz.
Gar Husayniy desangiz sho'roba to'kkay talx-talx,
Xo'blar, gohi anga boqib shakarxand aylangiz.

* * *

Yorab, ul gul ichra g'uncha nega guftor aylamas,
Yo bilib bilmasga solib sirrim izhor aylamas.
Tosh ila fo'lodg'a ohim o'tidur kor gar,
Ne qatiqdur ul ko'ngulkim, hech anga kor aylamas.
Ul jafokash bilgay ahvolim qatiq sa'b erkanin -
Kim, bo'lub kechlar g'ami ishqin padidor aylamas.
Ishqi man'ida kilur nosih tili ko'nglumni resh,
Yo'qsa bu g'am g'unchasin tong yeli afgor aylamas.
To'biyi jannat magar yuz noz ila kilsa xiom,
Sarvinozim ollida ul azmi raftor aylamas.
Oy yuzung taqlidig'a naqqoshi chin har dam chekar
Yuz raqam, lekin birin yuzdin namudor aylamas.
Insu jing'a garmi yo'q nolamdin uyqu, vah ne sud
Kim, dame noz uyqusidin oni bedor aylamas.
Senki tortib tig' el bo'g'zin chekarlar har taraf,
Barchasi ta'jil uchundur kimsa zinhor aylamas.
Gar Husayniy ishqini iqror tortar ahli zuhd,
Ahl emaslar yo'qsa bu ishdin inkor aylamas.

* * *

Ishq sirrin oshiq o'lg'on muhtalolardin biling,
Vasl komin topmay o'lgan benavolardin biling.
Ishqu xajru dard qasdim qildilar gar holima,
Voqif ermassiz, bu yuzlangan balolardin biling.
Ganda har o'q zaxmidin bag'rimda aylang bir boshuq
Ul boshuqlarning hisobin bu yarolardin biling.
Ishq aro anduhu xasratsiz netar ko'nglumga za'f,
Quvvatin ul notavonnng bu g'izolardin biling.
Eyki bilmaysiz jununum, chun so'rarsiz xolatim,
Oni sharh aylarda nomafhum adolardin biling.
Bilmaganlar ishq bedodini Majnun holig'a,
Bir jafu men tortqan turluk balolardin biling.
Ro'zgorimning qaro bo'lg'anlig'n kayfiyatin,
Eyki bilmaysiz, ko'zu qoshi qarolardin biling.
Jomi jamlik shohlarning hashmatin mayxonada
Dard uchun sing'an safol eltur gadolardin biling.
Gar Husayniy holatin ishq ichra bilmaysiz, ani
Rindlig' ko'yiga tushgan porsolardin biling.

* * *

Tushgali hajringda, ey sarvi gulandomim mening,
Ne ko'zumda uyku bor, ne jonda oromim mening.
Yetkururmen shomg'a hajring kunini yuz ranj ila,
Tongga, vah, bilmonki ne yanglig' yetar shomim mening.
Xar qachon maygun labing hijronida cheksam qadah,
Ikki ko'z xunobidindur lab-balab jomim mening.
So'zi ishqimning sabodin, vah, ne nav' irsol etay
Kim, samum ulur sabo yetkursu payg'omim mening.
Degasen, ey noma eltur payk, zoru xastadur,
Gar Husayniy holidin so'rsa diloromim mening.

* * *

Zulf ochib men telbani oshufta ahvol aylading,
Chini abro' ko'rguzub ko'nglumni behol aylading.
O'pkali keldi ko'ngul zulfung uchun, ey sarvinoz,
Sarfaroz aylar mahalda oni pomol aylading.
Jon qushin sayd aylamakka la'ling uzra, ey quyosh,
Donai mehr ekting ammo otini xol aylading.
Har kachon dedim vafo qil, aylading yuz ming hiyal,
Emdikim, dedim jafu qil, oni filhol aylading.
Qatl etay deb kelmading boshing'a, ey sarvi ravoi,
O'zgar qatliga bo'ldung, muni ihmol aylading.
Tig'i katl urdung ko'ngulga, shukr erur, lekin manga -
Kim vafosizlar g'amidin forig'ulbol aylading.
Gar Husayniy hajr aro dedi:"Fig'on, aylay fig'on!"
Shukrkim, vasling bila ul dam tilin lol aylading.

* * *

Vah, ne ishdur, kimnikim men mehribon qildim xayol.
O'zgalardin ul meni ko'prak kilur ozurdahol.
Kimnikim, andin malolat daf'ini men ko'zladim,

Andin o'q bo'ldi boqib turg'uncha, vah, xotir malol.
Onikim, men qilmadim ozurda bo'lg'och so'z chog'i,
Qildi ul ozurda so'z birla meni topg'ach majol.
Kimnikim men istadim bo'lg'ay Masihodek fasih
Istar ulki men dam urmay bo'lg'amen olida lol.
Necha men vasl istasam ul vasl aro hijron tilar,
Ul tilar hijron necha hijron o'tub topsam visol.
Ey Husayniy, turfa holatdur muni kimdin so'ray,
Kel yana bir katla ham ul yordin aylay savol.
* * *

Hajring o'ti jismu zorim kildi kul, ey yor, bil,
Gar bino qilsang mazorim tarxin ul kul birla qil.
Qatl etib ovora ko'nglumni buzug' jismim aro,
Vah, bilib bilmasga sol, ey jon, kelib nazzora qil.
Ul qadu yuz hajridin o'lsam, bezab gulbarg ila,
Tufrog'imning boshi uzra sarv egib, mil aylagil.
Aylagaylar sa'b dardim sharhidin izhori ajz,
Bo'lsa har zahmim og'iz paykoning ul og'izda til.
Gar yuzung bo'lsa mudavvar, sunbulung asru uzun,
Hech ermastur ajab, nevchunkim ul oydur, bu yil.
Ey sabo, yetsang musofir oyima zinhorkim,
Hajr zindonida onsiz tiyra holimni degil.
Ishq jomidin bo'lubsen, ey Husayniy, asru mast,
Husndin gar bahra topmok istasang bir dam oyil.
* * *

Chun junun zanjirig'a bo'ldum giriftor, ey ko'ngul,
Bo'lg'asen farsuda jonimdin xabardor, ey ko'ngul.
Qochsam ul zanjir ila ovoraliq' sahrasig'a,
Qilma holimni xirad ahlig'a izhor, ey ko'ngul.
Qo'yki davronning jafuoyin eli bedodidin,
Bo'lmayin hargiz alar ichra padidor, ey ko'ngul.
Anda ham qo'ymay topib devonadur deb bog'labon,
Sudrab eltur bo'lsalar xalqi sitamkor, ey ko'ngul.
Qilsalar g'avgo ulus jonimg'a bedod etgali,
Mendan ul dam lahzaye ayrilma zinhor, ey ko'ngul.
Shoyad ul yanglig' tamosho sori mahvashlar bila,
Kelgay ul shamshodkad, mohiruxsor, ey ko'ngul.
Ko'rgach oni gar Husayniy yanglig' etsang tarki hush,
Hasratida qilg'asen jonimni iysor, ey ko'ngul.
* * *

Qani bir mahvash anga so'zu gudozimni desam,
Qani bir mushfiqki, bir dam anga rozimni desam.
Anglag'aylarkim haqiqat sirridin xoli emas,
El aro kayfiyati ishq majozimni desam.
Yetti charx avroki to'lgay yetti bahr o'lsa midod,
Bir zamonlig' hajr aro so'zu gudozimni desam.
Dahr aro oshub ko'p tushgay, salomat qolg'ay oz,
Dardu sabrim sharhi ichra ko'pu ozimni desam.
Vah, netaykim, nozu istig'nosin aylar birga yuz,
Har nechakim, nuktai ajzu niyozimni desam.
Ko'zki tardomandur, oni ne deyin arzir agar,
Ko'ngul otlik soda rindi pokbozimni desam.
Do'zax o'lsun maskanim gar to'biyi jannat so'zi,
O'tsa oning o'trusida sarvinozimni desam.
Kuymagan parvona mendek, kolmag'ay hijron tuni,
Bazm aro gar lam'ai sham'i tirozimni desam.
Ey Husayniy, el salomat kuyidin bo'lg'ay jalo,
Gar Navoiy yanglig' ohangi Hijozimni desam.
* * *

Qilg'an ermish ul pari tarki muhabbat, bilmadim,
Tushgan ermish jovidon ko'nglumga furqat, bilmadim.
Men anga jonni fido qilmoqtavu ul jonima
Hajr o'ti yoqmish, ko'yarg'a dog'i hasrat bilmadim.
Oshiq o'lg'anda umidim bor edi no'shi nishot,
Anda bor erkanni muncha nishu mehnat bilmadim.
Shu'lai shavqin yoruttum, vahki, mahzun jonima
Har bir uchqun bo'lmog'in bir barqi ofat bilmadim.
Vasl umidi birla ishq oson ko'rundi, voykim,

Anda har dam bor ekanni muncha shiddat bilmadim.
Mubtalo bo'lg'anda ul kofirg'a qildim tarki jon,
Bir yo'li barbod o'lurni dinu millat bilmadim.
Ey Husayniy, ishqni qildim nihon, qilmon gumon,
Muncha rasvolik bila tutmoqni shuhrat bilmadim.
* * *

Men hilol o'ldum g'amingdin, sen quyoshsen, ey sanam,
Yo'q ajab gar mendin o'lsa kamligu sendin karam.
Bog' aro xoshok yeldin har taraf mayl aylasa,
Soyasini aylamas boshidin oning sarv kam.
Chun g'amu faryodu afg'oni erur gul shavqidin,
Har nihol uzra agar bulbul navo tortar ne g'am.
Har qayon sayr etsa parvona shabiston sahnida,
Bor bu ravshankim, chekar sham' o'ti ko'nglidan alam.
Ko'zu zulfung birla og'zing sirrin eltur jon aro,
Gar Husayniy dardi ishqing yo'lida bo'lsa adam.
* * *

Otashin xil'at dema jismim uza, ey dilbarim -
Kim, erur ishqing o'ti birla tutashkon paykarim.
Yo erur siymobi deb qilma gumonkim, ishq o'ti
O'rtadi majruh jismimni erur xokistarim.
Dema axgardek libosing uzra bor siymobi tun,
Kuldurur siymobisiyu otashindur axgarim.
Ziyat uchun dema bor jismingda gunogun libos,
Ishq o'rtab sarbasar qilmish bu zebu zavarim.
Uchkay erdim har zamon az baski tengmish novaking,
Bo'lmasa erdi agar paykonlaringdin langarim.
Ko'yida xishtiki bir kun ko'ymisham bosh ostina,
Aylangiz zinhor chun o'lsam lahadda bistarim.
Ey Husayniy, bo'lmisham zuhdi riyoyidin xalos,
Bo'lg'ali mug' ko'yi sori dayr piri rahbarim.
* * *

Tig' ila ko'nglumni kilding zahm, ey siyminbadan,
Koni turmaydur deb ul zahm uzra kuydurding tugan.
Yuz tikandek igna birla, voykim, zahm aylading,
Hajr aro zaxming ayog'ig'a kiribtur deb tikan.
Hayf deb qayg'urmag'il, jono, ne asig' emdikim,
Dardi hajringdin adam sarmanzilin kildim vatan.
Eyki, yopding ko'ngluma sabru salomat pardasin,
Pardai sabr ermas ermish ulki bor ermish kafan.
Jong'a yor o't yoksa marham yokkanicha shod bo'l,
Ey Husayniy, ishq aro bu nav' erur vajhi hasan.
* * *

Oh, agar ko'rsam yana ul mohi tobonimni men,
Bergamen shukronai vasli uchun jonimni men.
Ey musulmonlar, ko'yungkim, sarf qildim yo'lida,
Zulfidin zunnor bog'lab, dinu imonimni men.
Eshikingda kechalar ko'p yig'lamog'din oqibat,
Oshkoro ayladim bu sirri pinhonimni men.
Dedi oxir bor murodimkim, seni o'lturgamen,
Gar sening roying budur, qildim bihil konimni men.
Necha dersenkim, Husayniy kolmadi joning sening,
Ey nasihatgo', netay bu yorsiz jonimni men.
* * *

Gar kelib vayron qabrimni ziyorat qilg'asen,
Rahm etib, ey qotilim, oni imorat qilg'asen.
Qatl aro taslim erur, ey hajr, olingda ajal,
Necha olib jonim izhori mahorat qilg'asen.
Chun ko'ngulda ko'ymading oromu sabru aqlu din,
Emdi, ey zolim, bu kishvarda ne g'orat qilg'asen.
Ohim olida sovuq-solqinsen, ey do'zax o'ti,
Har dam ar yuz qatla izhori harorat qilg'asen.
Ul oy istig'nosidin aflok erur past, ey ko'ngul,
Hojat ermasturki, sen arzi haqorat qilg'asen.
Necha yil qatlig'a ma'mur aylabon ul g'amzani,
Yoshurun, lekin mening sori ishorat qilg'asen.
Ey Husayniy, ishqidin kechkumki, muhlikdur deding,
Yaxshiroq gar emdi tag'yir iborat qilg'asen.

* * *

Zulfi ichra xat, xat ichra la'li xandondur nihon,
Zulmat ichra Hizr ham, ham obi hayvondur nihon.
Sehr birla fitnadin xoli emas ko'nglum dame,
Anda chun bir ko'zi sohir, xoli fattondur nihon.
Ko'nglum ichrakim, nihondur demangiz, ey do'stlar -
Kim, nihon bo'lgan ko'ngulda ko'nglum olg'ondur nihon.
G'uncha og'zi naqshimu ko'nglumdadur yo tan aro
Ko'p hadangidinmu paykon ichra paykondur nihon.
Bo'lsa ko'nglumda safovu nur ermastur ajab,
Anda u yuz shavqidin xurshidi raxshondur nihon.
Ishq so'zin zor jismimda nechuk pinhon qilay,
Barq o'ti xoshok aro bo'lmoq ne imkondur nihon.
Ey Husayniy, kuymaguncha ishq aro yetmas visol,
Tanni kuydur oshkoro, jonni ham yondur nihon.

* * *

Hech musulmong'a, nigoro, dog'i hijron bo'lmasun -
Kim, visolingdin judo bo'lsa anga jon bo'lmasun.
Ko'z uchidin novaki javrung bila o'ltur meni,
Domani poking, begim, nogah yana kon bo'lmasun.
Xasta ko'nglum bandi zulfungdin parishondur basi.
Jam' kilg'il sunbulungnikim, parishon bo'lmasun.
Jong'a yettim dilbari nodon elidin, oh, oh,
Xech kishining dunyada mahbubi nodon bo'lmasun.
Jon berurda kelib o'ltur, bir dame ko'ray seni -
Kim, Husayniy ko'nglida, ey do'st, armon bo'lmasun.

* * *

Ko'nglum olur g'unchai serobi guftori bila,
Jonim o'rtar otashin la'li shakarbori bila.
Dahr bozorida g'avg'o soldi Yusuf husnikim,
Jilvagar bo'ldi sening husnung namudori bila.
Tig'i zaxmindin erur xursand ko'nglum, ey rafiq
Yeqsa marham, ko'y o'lay ul zahm ozori bila.
Mahvmen andoq ul oy husnig'akim, yo'qtur ishim,
Ishqining ixfosiyu dardimning izhori bila.
Yolg'uz ul oy hajrida sargashta ermas, menki bor,
Charx ham bu ishga bois davri parkori bila.
Eyki, dersen topmadim matlubni ko'p istabon,
Bilki ul istarda hamrahdur talabkori bila.
Itlariga to'ma bo'lg'ay deb Husayniy qo'ydi yuz
Ul sanam ko'yiga uryon jismi afgori bila.

* * *

Xattining tori tushubtur la'li makgun ustina,
O'ylakim jon rishtasi bir qatrai xun ustina.
Tishlari ustida har kim la'lini ko'rgach dedi:
"Bargi guldurkim, tushubtur durri maknun ustina".
Xolining har dam xayoli telba ko'nglumda erur;
Zog'lar andoqki g'avg'o kildi Majnun ustina.
Aytgay sarv uzra gul payvand qilmish bog'bon,
Kimki ko'rsa orazing ul qaddi mavzun ustina.
Yangi oy oning samandi na'lidin keldi nishon,
Ul quyosh raxshin magar sekretti gardun ustina.
Mayg'a xirkam rahnu men maxmur, netti mayfurush,
Yona bir paymona ham bersang bu marhun ustina.
Seli ashk ichra Husayniy chun ko'runmas, istamang -
Kim, ko'rungay tushsa bir xoshok Jayhun ustina.

* * *

Xajr shomi oy chikib, men yig'lar erdim dard ila,
Sayrlar qildim seni istab mahi shabgard ila.
Oy uyoqqach yona ko'nglumni buzub yolg'uzlug'um,
Tiyra shomim anduhidin yig'ladim ko'p dard ila.
Charx ham anjum sirishkin holima ko'p sochti, lek
Bo'lmadi yig'larda teng men zori g'amparvard ila.
Motamimg'a charx ko'k aylab libosin, tun qaro,
Subh ham aylab yaqosin chok ohi sard ila.
Shomi xijrondin kutulg'uncha isittim mehrdek,
Ashk selin oqizib, titrab uzori zard ila.
Dahr bo'stoniga ko'p qo'yma ko'ngul, ey andalib

Kim anga bo'yi vafo yo'q yuz tuman, ming vard ila.
Ey Husayniy, uyqu bexudluk, yemak g'amdur menga,
To ne to'lg'ay oqibat xolim bu xobu xo'rd ila.
* * *

Nuktai xolnng ajab yo'q la'li xandon ustina,
Kim bo'lur bir qatra doim obi hayvon ustina.
Hajrin o'qi to tikilmish ko'ngluma, ey koshi yo,
La'lgun ashkimga o'xshar xori mujgon ustina.
Novakingga boqqi, dog'i hasratimdindur nishon.
Javharikim, ko'runur po'lodi paykon ustina.
Ey sabo, qonlik ko'zumga ko'yidin yetkur g'ubor,
Rasm erur tufroq to'kmak doimo qon ustina.
Ishq tig'idin buzug' ko'nglumda erdi choklar,
Vahki, bo'ldi bir sari bu dog'i hijron ustina.
La'li serobing g'amidin notavon jismim erur
Misli xoshokeki, tushgay obi hayvon ustina.
Ey Husayniy, yor kelsa naqdi jon aylay nisor,
El sochiq sochkan kibi dilxoh mehmon ustina.
* * *

Xatti jonafzo chiqarmish la'li xandon ustina,
Xizrdekkim, soya solg'ay obi hayvon ustina.
O'yladurkim, zahm uza har yon chibin qilg'ay hujum,
Zog'lar ko'nsa bu qonlik jismi uryon ustina.
Ko'z yoshim selidin o'lmas za'flig' jismim, ayon,
Qayda bir xas zohir o'lg'ay bahri ummon ustina.
Kulbam ichra o'rtanurmen tushgay oling'a kuyub,
Qaysi bir qushkim, dame ko'nsa bu vayron ustina.
Boshing uzra gulmu sonchibdursen, ey ra'no nihol,
Yo'qsa payvand aylading sarvi xiromon ustina.
Hajr o'ti bedodidin bilgilkim, ohim dudidur,
Har bulutkim, soya solg'ay ahli davron ustina.
Itlariga gar fido bo'ldi so'ngakdek paykarim,
Ey Husayniy, hayrat etma, so'z borur jon ustina.
* * *

Ey ko'ngul, gardun baliyat toshini yog'durdilo,
Xar taraf sabrim uyi devorini sindurdilo.
Qilmadi ham tark chun devorig'a berdi shikast,
Seli g'am saqfin qaro tufroqqa ham indurdilo.
Aylar erdim ishqning rasvolarig'a sarzanish,
Bo'lg'ali rasvo so'zum lof erkani bilgurdilo.
Yetsa har g'am, ilmu aql avroki erdi munisim,
Har varaqni bir sari ohim yeli sovurdilo.
Mazra'i zuhd ichrakim jam' erdi sabrim xirmani,
Sekrib ul xirmang'a bir barki bal kuydurdilo.
Ofiyat kunjida doim boshim erdi sajdada,
Ishq oxir muncha shiddat boshima kelturdilo.
Ey Husayniy, el eshitmas erdi tasbihim unin,
Ishq afg'onimni gardun tokidin oshurdilo.
* * *

Ishq aro Majnunni dermenki, o'zimga o'xshatay,
Hushini zoyil kilib devonalig'ni o'rgatay.
Subhu vaslu shomi xijrondek necha olam elin
Bul ajab holimg'a gohi kulduray, gah yig'latay.
Jon berurmen hajrida, za'fimdin el ko'rmas meni,
Ishq aro har necha dermenkim, o'zumni ko'rsatay.
Uns tutmishmen kiyiklar birlakim, ul shahsuvor
Ovg'a kelganda anga bu nav' o'zumni uchratay.
Chun ko'z ochmas uykudin baxtim ne sud, ey do'stlar,
Gar fig'ondin har kecha olam elini uyg'atay.
Ko'ksuma tosh urmog'imni ayb qilma, ey rafiq,
Qo'yki, anda qolg'ig'an paykonlarini o'rnatay.
Chun Husayniy ko'ngli har dam bir taraf ovoradur,
So'z desang turkim javobida ko'ngulni to'xtatay.
* * *

Ey jafu tig'i, kelib majruh ko'ksumni yoru,
Qo'l yalang aylab solib har yon ichimni axtaru.
Axtarurda topmasang ul ko'nglumki, majnunshevadur.
Har nechuk bo'lsa adam sahrosi sori boshqaru.

Boshqarurda bormasa ko'nglum adam sahrosig'a,
To'sh-to'shidin sanchibon ul sori oni qaytaru.
Qaytarurda voqif ulkim, yana qaynab kelmasun,
Tengri uchun notavon jonimni andin qutqaru.
Qutqarurda notavon jonimni ul bebokdin,
Yuz jaf o'ylab ani keltur qoshimdin o'tkaru.
Istabon kelsa yana ko'ksun shigofin topmag'ay,
Vahki, bir marham ko'yub ul choki ko'ksun butkaru.
Aylasang miskin Husayniy jonini ondin xalos,
Dardi bu bo'lg'ay duoda sen dag'i doim boru.
* * *

Ey sanga, majnunsifat, har go'shaye devonaye,
Orazingning mehriqam sham'i falak parvonaye.
Mehnati Ya'kub erur dardimdin, ey jon, shammaye,
Bo'ldi Yusuf kissasi davringda bir afsonaye.
Jonu ko'nglum bo'ldi vayron ishq o'ti birla, ne g'am,
Chun manga bo'ldi balo ko'yida mehnatxonaye.
Oshiqi bechorag'a chun vasl umidi yo'qturur,
Emdidin so'ngra firoqu go'shaye vayronaye.
Yor, yurokimni chiqor, bu bevafo jonni ravon,
Joni man oxir uyingda, ne tilar begonaye.
Ey Husayniy, jur'aye vasli mayidini ichmoyin,
Bexud o'ldung, voy, garkim bersalar paymonaye.
* * *

Mushkbo' xattinmu dey yo la'li durborinmu dey,
Ko'zi imoninmu dey yo zulfi zunnorinmu dey?
Kavsari la'linmu aytay, yo'qsa xattidin aning,
Tegrasida sabzai jannat namudorinmu dey?
Sabzavu guldek xati birla yuzinmu sharh etay,
Sabzavu guldin bezalgan bog'i ruxsarinmu dey?
Rishtai jon birla hayvon suyidini so'rding xabar,
Belining torinmu aytay, la'li guftorinmu dey?
Eyki, dersen ishqida vasf ayla ko'nglung holini.
Har taraf zaxminmu dey yo nolai zorinmu dey?
Dahr bog'i gullarida garchi yo'q bo'yi vafo,
Har birining tegrasida yuz jaf o'ylab xorinmu dey?
Ey Husayniy, demagilkim, yor ishqin sharh etay,
Vaslining rashkinmu dey, xajrining ozorinmu dey?
* * *

Ey ajal, osuda qil hijron balosidin meni,
Bir yo'li qutqar ulusning mojarosidin meni.
Za'fim oshti hajr bog'ida sirishku ohdin,
Qutqar, ey vasl, ul chaman obu havosidin meni.
Ey ajal, qo'rquv o'lturgum debon, o'lturgasen,
Gar tirik topsang firoqining jafosidin meni.
Ishqu rashku hajr muxlik, vah, anga jonim fido -
Kim, chikarg'ay bu balolarning arosidin meni.
Har necha o'tkarsa haddin muddai bedodu zulm,
O'tkara olmas visoling muddaosidin meni.
Derki, sabr etgil, hakimi aql, qilg'il, soqiyo,
Bir qadah birla xalos oning davosidin meni.
Ey Husayniy, saltanatdin oncha faxrim yo'qturur -
Kim, degaylar ko'yining xayli gadosidin meni.
* * *

Bas emas erdi manga ham o'z o'tum, ham yor o'ti -
Kim, anga afzun dag'i bo'lmish yana bir zor o'ti.
O'z o'tum ko'nglumga ofat, yor o'ti jong'a balo,
Boisi anduhu dard ul bedili bemor o'ti.
Bu balo barki, ul ofat do'zaxi, ko'r, turfakim,
Tez etar bu ikkini bir xotiri afgor o'ti.
Buyla uch o't bir ko'ngulga tushsa kuymay naylagay,
O'ylakim, bulbul o'tiyu gul o'tiyu xor o'ti.
Jonu ko'nglum birla bag'rim kuydi bu uch o't bila,
Yaxshi boqsam yuz tamug'cha har birining bor o'ti.
O'z o'tum yo yor o'tig'a garchi taskin bersa ashk.
Vah, ani naylayki, qilg'ay yuz chakin izhor o'ti.
Gar Husayniy'ga bir o'tluk yuz g'ami o't solmasa,
Pas nechuk olamni kuydurdi Navoiyvor o'ti.

* * *

Qilmag'ay erdim yuzin ko'rmak tamanno koshki,
Solmag'ay erdim ko'ngul mulkiga g'avgo koshki.
Vasl aro tushti ko'ngul mulkida g'avgo, ey rafiq,
Qilg'ay erdi xajr o'ti ko'nglumni yag'mo koshki.
Tengri uchun telba ko'nglumni iturgil, ey sipehr -
Kim, emas xosil bu bexosildin illo koshki.
Ishq aro rasvo bo'lubmen, bu taassufdin ne sud,
Yo darig'edur har ishning zimmida yo koshki.
Ul quyoshning naqdi vasli garchi rohatdur, vale,
Qilmagay erdi ko'ngul oni tamanno koshki.
Menki ul oy ishqini kildim tamanno, ey ko'ngul,
Qilg'ay erdim zuhd ichinda diyda biyno koshki.
Chun Husayniy davlati tavfiq sandin istadi,
Ushbu ishda solma ko'ngliga, xudoyo, koshki.

* * *

Ey habibingdin kelib hamdingg'a lo ihso sano,
Ul chu ojiz bo'lsa vafsingkim kila olg'ay yano.
Komu rohatdur sening shavqingdag'i anduhu g'am,
Ayshu ishratdur sening ishqingdag'i dardu ano.
Ganj topsa mun'im o'lmas kimni sen kilsang faqir
Ganj bersa muflis o'lmas kimga sen bersang g'ino.
Ko'nglum et ma'mur mehning birla, lekin qo'ymag'il
Nafs anda qilg'ali hirsu havas tarxin bino.
Xasta ko'nglumni o'zingdin o'zginin begona qil,
O'zginin begona qilg'ach, qil o'zingga oshino.
Zulmati xijroning ichra yo'l ozib sargashtamen,
O'z-o'zing sori hidoyat sham'i birla ehdino.
Lutf etib ushshoq aro, yorab, navo qilg'il nasib,
To Husayniyning maqomi bo'lsa bu dori fano.

* * *

O'ylakim, gul ichra g'unchang har necha ma'lum emas,
G'unchai og'zing nechakim so'z desa mafxum emas.
Ul quyoshning partavin ko'yida ko'rsam yo'q ajab,
Hech kim jannatda to'bi nuridin maxrum emas.
Ishq zulmidin agar Farhodu Majnun o'ldilar,
Menda har damdur o'lum, mendek alar mazlum emas.
Shoh hukmi birla ko'nglum ishq tarkin tutmag'ay,
Shoh erur hokim, vale bu kimsaga mahkum emas.
Ishqu may jurmig'a dayr ichra meni yozg'urmangiz,
Negakim, masjidida dag'i hech kim ma'sum emas.
Ne balodur ishqkim, ko'rdum aning avrokida,
Dard ila mehnatdin o'zga nuktaye markum emas.
Gar Husayniyning visoling davlatidin, ey sanam,
Ya'si ko'p mavjud esa umidi ham ma'dum emas.

* * *

Za'fdin o'rgamchi domig'a yiqilg'ach chirmanib,
Ul chibindek to'rladi har yon tanimni aylanib.
Laylivu Shirinu Uzro bordilar, vah, ne ajab,
Bo'lmog'im vola sangakim, sen qolibsen saylanib.
Vomiqu Farhodu Majnun ishq o'tig'a to'zmayin,
Bordilar, men qoldim alardin o'tumg'a churkanib.
Churkanib qolg'ach o'tumg'a, maxfiy istab g'ayrdin,
O'lturubmen turfa ish, ko'rkim, kulumni burkanib.
Hajrida jonimg'a bedod aylasay ayb etmangiz -
Kim, qatiq hol ermish ayrilmoq birovg'a o'rganib.
Vah ne tole'durki, g'am shomi tushimga kirsay yor,
Bovar etmay uyqudin sekrib ko'parman seskannb.
Yor ko'yidin o'tarda boshima yog'sa balo,
Anda aylarman mavaqquf har jihatdin kuymaniib.
Ranji xijron za'fdin tebranmagim imkon emas.
Oncha quvvat qaydakim, ko'yungga borsam surganiib.
Ey Husayniy, juz fano ohangi ma'lum o'lmadi,
Ko'yidakim navha qilding za'f vaqti ingranib.

* * *

Men o'lar holatdamen, ey yor ko'yi itlari.
Aylamang g'avgo mening sirrimni ifsho qilmangiz.
O't tushubtur dasht uza ohimdin, ey ahli tarab,

